

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

No1

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026 yanvar



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 453 sahifa.
2026-yil, yanvar

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ И ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА УЗБЕКИСТАНА.....	26
Каракулов Фарход Зайпудинович	
TRANSPORT TIZIMIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH USULLARI.....	33
Bababekova Gulchexra Baxtiyarovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUARUVCHI KORXONALARNING SIFAT MENEJMENTI TIZIMINI BAHOLASH.....	38
Achilov Ilmurad Nematovich	
TURIZM OBYEKTLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIIY-IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	45
Toshtemirov Xojiakbar Qahramon o'g'li	
КАЧЕСТВО КРЕДИТНОГО ПОРТФЕЛЯ БАНКОВ УЗБЕКИСТАНА ЧЕРЕЗ ПРИЗМУ ПРОБЛЕМНЫХ КРЕДИТОВ.....	51
Алиева Сусанна Сейрановна	
ВЛИЯНИЕ ЛИБЕРАЛИЗАЦИИ И РЫНОЧНЫХ МЕХАНИЗМОВ НА РАЗВИТИЕ ОБЩЕВОДСТВА И КАРАКУЛЕВОДСТВА В ГЛОБАЛЬНОМ МАСШТАБЕ.....	58
Нуриллаев Жамолиддин Ярашевич	
BARQAROR INVESTITSIYALAR: IQTISODIYOTDAGI ROLI VA DOLZARBLIGI.....	65
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna	
KRAUDFANDING – BARQAROR RIVOJLANISHNI AMALGA OSHIRISH UCHUN INNOVATSION MOLIYAVIY VOSITA SIFATIDA.....	71
Ashurova Oltin Yuldashevna	
FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIYAVIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI.....	78
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI UCHUN BARQAROR BREND QIYMATINI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYALARI.....	84
Bekmurod Davlatmurotovich Ollaberganov, Zilola Baxramovna Abdikarimova	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA KORPORATIV BOSHQARUVNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	89
Atajanov Kamal Atavayevich	
AVTOTRANSFORMATORLARNING TASHQI MAGNIT MAYDONINING MATEMATIK MODELI.....	96
Pirmatov Nurali Berdiyrovich, Bekishev Allabergen Yergashevich, Baxriddinov Begzod Alibek o'g'li	
O'ZBEKISTON VA JAHON AMALIYOTIDA BUDJET MUASSASALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING RIVOJLANISHIGA RETROSPEKTIV TAHLIL.....	101
Berdiyev Toshkenboy Panjiyevich	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: RISKGA ASOSLANGAN YONDASHUV VA AMALIY MEKANIZMLAR.....	108
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
TIJORAT BANKLARI DEPOZIT BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	113
Shayxiev Boburbek Ulug'bekovich	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA OLIY TA'LIM TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING KONSEPTUAL MODELI.....	120
Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li	



GEODEZIYA VA GIS TEXNOLOGIYALARINING INTEGRATSIYASI.....	125
<i>Ziynura sabirova</i>	
RESPUBLIKADA UY-JOY QURILISHI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGINING O'RNI	129
<i>Otajonov Tohirjon Xo'janazar o'g'li</i>	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ТРУДОВЫХ ОТНОШЕНИЙ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА АО «УЗБЕКИСТОН ТЕМИР ЙУЛЛАРИ» В УСЛОВИЯХ СТРУКТУРНЫХ РЕФОРМ.....	133
<i>Кадирова Шарофат Амоновна</i>	
KASBLARNI MODERNIZATSIYA QILISH VA MEHNAT BOZORINING YANGI MODELINI BARPO ETISH	139
<i>Ruziyev Oybek Abdumuminovich, Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich</i>	
O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL BIZNESINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	143
<i>Saidov Dilshodbek Razzakovich</i>	
QISHLOQ JOYLARIDA MEHNAT RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI	148
<i>Amaniyazova Rayhan Bayniyazovna</i>	
ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ЭКСПЛУАТАЦИОННОЙ УСТОЙЧИВОСТИ МАЛОМОЩНЫХ СЕТЕВЫХ СОЛНЕЧНЫХ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКИХ СТАНЦИЙ В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА	153
<i>Кудратов Афзалхужа Рустамович, Далмурадова Наргиза Нуриллаевна, Шогучкаров Санжар Кодирович</i>	
MINTAQADA PARRANDACHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	161
<i>Qarshiyev Obidjon Egamberdiyevich</i>	
INNOVATSION BANK EKOTIZIMLARINING TIJORAT BANKLARI RIVOJLANISHIDAGI ROLI	165
<i>Aliyev Hasan Rayimjonovich</i>	
ANALYSIS OF FACTORS OF INTENSIVE ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN	171
<i>Sharipov Kamil</i>	
SUN'IY INTELLEKT – TO'RTINCHI SANOAT INQILOBINING ASOSI.....	176
<i>Kalonov Muxiddin Baxriddinovich</i>	
KORXONALARDA MOLIVAVIY BOSHQARUVNING TASHKILY VA IQTISODIY MASALALARI.....	187
<i>Jumayev Samariddin Ziyodullaevich</i>	
YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASI ASOSIDA KICHIK BIZNES FAOLIYATINI OSHIRISH YO'LLARI	193
<i>Isroilov Dilshodbek Rustamovich</i>	
TALABALARDA O'Z-O'ZINI TARTIBGA SOLISH KO'NIKMALARINING RIVOJLANISHIDA INTERAKTIV TA'LIM PLATFORMALARINING O'RNI	198
<i>Bozorova Muazzam Hamid qizi, Hakimova Gulnora Abdullo qizi, Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi</i>	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MONOPOLIYAGA QARSHI NAZORATNING XORIJIY TAJRIBASI	203
<i>Bekbutayev Nodirjon Fayzullayevich</i>	
XORAZM VILOYATIDA KAMBAG'ALLIK DARAJASINING O'ZGARISHI VA BU JARAYONGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	208
<i>Mayliyeva Sadoqat Safayozovna</i>	
IQTISODIY-MATEMATIK VA SSENARIYLI YONDASHUVLARDAN FOYDALANIB SANOAT RIVOJLANISHINI BAHOLASH VA PROGNOZLASH	213
<i>Turdiyev Ulug'bek Qayumovich, Qayumova Nurafshona Ulug'bek qizi</i>	
EKSPORTNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARINING DOLZARBLIGI.....	217
<i>Abdivaliyev Shahzodbek Xayrullayevich, Mutalov Sultonbek Abduraim o'g'li, Baymanova Mavlyuda Djurayevna, Ubaydullayeva Gulchexra Erkabayevna, Aipova Iroda Ikramovna</i>	



LEGAL AND INSTITUTIONAL FOUNDATIONS OF ECONOMIC COOPERATION BETWEEN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND INTERNATIONAL FINANCIAL INSTITUTIONS	222
Yovkochev Sherzod	
ICHKI AUDIT FUNKSIYALARINING ICHKI NAZORATNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI	228
Tursunov Shohruxmirzo Baxtiyor o'g'li	
MOSH DONINI YANCHIB OLISHDA QO'LLANILADIGAN QURILMANI LOYIHALASH	232
Qurbanov Abdimalik Jo'rayevich	
DAVLAT BOSHQARUVIDA SAMARADORLIKNI BAHOLASH: INSTITUTSIONAL MEXANIZMLAR, RAQAMLI YECHIMLAR VA AMALIY KUTILMALAR	239
Sarvar Saidov Xayrulloevich	
O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI DOIRASIDA UNING INFRATUZILMASINI TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH BORASIDA TAVSIYALAR	244
Tashov Mizrob Maxmudovich	
DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARIDA INSON KAPITALINI BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI	251
Mashrabaliyev Ibroximbek Mashrabaliyevich	
ФИНАНСЫ И ВЫСШАЯ МАТЕМАТИКА В КОНТЕКСТЕ ГЛОБАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА	257
Айматова Фарида Хуразовна	
ZAMONAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING ROLI	263
Salayeva Dilafro'z Aybekovna	
ДИАГНОСТИКА СИНХРОННОГО ДВИГАТЕЛЯ НА ОСНОВЕ ИЗМЕРЕНИЯ ВНЕШНЕГО МАГНИТНОГО ПОЛЯ	267
Пирматов Нурали Бердярович, Бекишев Аллаберген Ергашевич, Мамуров Алмас Жумабой угли	
XORIJIIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI ASOSIDA SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI VA XUSUSIYATLARI	275
Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna	
СТРАТЕГИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА СТОИМОСТИ КОМПАНИИ В СДЕЛКАХ СЛИЯНИЙ И ПОГЛОЩЕНИЙ	279
Ли Илларион Георгиевич	
KO'P YADROLI CPU VA GPU ARXITEKTURALARIDA DIFFERENSIAL TENGLAMALARNI SONLI YECHISH UCHUN PARALLEL ALGORITMLARNI ISHLAB CHIQISH VA SAMARADORLIGINI BAHOLASH	284
Ismailov Shixnazar Rashid o'g'li, Ubaydullayev Farrux Fathulla o'g'li, Odilov Asliddin Isoq o'g'li	
СИСТЕМАТИЧЕСКОЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ — ОСНОВА ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭКОНОМИКИ	291
Муталов Абдуазим	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYALARNING HUDUDIIY TARKIBI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	295
Ermamatov Shonazar Jumakulovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSIYA SIYOSATI: INSTITUTSIONAL VA RAQAMLI ISLOHOTLAR	302
Sobirov Yo'ldoshboy Ro'zimboevich	
QASHQADARYO VILOYATINING IJTIMOIIY-IQTISODIY SALOHIIYATI VA BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	310
Tuyev Abdurahmon Yusubopvich	
ТЕМИР YO'L STANSIYALARIDA STRELKALI O'TKAZGICH QURILMALARI BO'YICHA YO'L QO'YILGAN NOSOZLIKLAR VA ULARNING TAHLILI	315
Yunusova Gulshanoy Umarali qizi	



SANOAT KORXONALARIDA ASOSIY FONDLARDAN VA ISHLAB CHIQRISH QUVVATIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI.....	320
Ulashev Xubbim Askarovich	
TURLI YO'L SHAROITLARIDA TO'QNASHUV PAYTIDA TORMOZLASH VA BOSHQARUV PARAMETRLARI	324
Uralbayev Anvar Ubaydullayevich	
YANGI YARATILGAN MAHALLIY DURAGAY PILLALARNI YAKKA CHUVISH NATIJALARINING TAHLILI.....	328
Sobirov Qo'ziboy Erkinovich	
UY-JOY KOMMUNAL XIZMAT KO'RSATISHNI ZAMONAVIY YO'LLARI.....	332
Boboqulov S.B.	
TARJIMON DASTURLARIDA MULTITILLARNI TASNIFLASH: MAVJUD YONDOSHUVLAR VA MUAMMOLAR.....	338
Maxmudjanova Sayyora Yashin qizi	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA ICHKI AXBOROT TIZIMLARINING MODERNIZATSIYASI ORQALI ISHLAB CHIQRISH JARAYONLARINI OPTIMALLASHTIRISH	343
Yo'ldoshev Nodirbek Ne'matjon o'g'li	
NEFT VA GAZ TERMINOLOGIYASINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHINING NAZARIY ASOSLARI.....	349
Jo'rayeva Malohat Muhammadovna, Quryozova Gulshan Akmal qizi	
УСИЛЕНИЕ РОЛИ МЕЖДУНАРОДНЫХ ДЕНЕЖНЫХ ПЕРЕВОДОВ В ДОСТИЖЕНИИ УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА В УЗБЕКИСТАНЕ	355
Гимранова О. Б.	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA OPERATSIYALARINING AHAMIYATI.....	361
Yuldashev Fozil Turapovich	
QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INI HISOBLASH VA UNDIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	373
Jumanazarov Alisher Toshtemir o'g'li	
ВЛИЯНИЕ КАЧЕСТВА ПУБЛИЧНОГО ФИНАНСОВОГО УПРАВЛЕНИЯ НА ДИНАМИКУ ЭКОНОМИКИ	377
Наимов Шохрух Шарофиддинович	
DIVIDEND SIYOSATINI SHAKLLANTIRISHDA FOYDA SIFATI VA FOYDANI BOSHQARISHNING TA'SIRI.....	383
Eshev Furqat A'zamovich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ УМНЫМ ГОРОДОМ НА БАЗЕ ЦИФРОВЫХ ПЛАТФОРМ С ОРИЕНТАЦИЕЙ НА ЧЕЛОВЕКА	388
Рахимова Мадина Шухрат кизи	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA HISOB SIYOSATINING USLUBIY JIHATLARI	393
Toshpo'latov A. A.	
MOLIYAVIY HISOBOT ISHONCHLILIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	398
Zufarova Zilola Rahim qizi	
RAQAMLI PUL TIZIMINING KORRUPSIYA VA YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHDAGI INSTITUTSIONAL AHAMIYATI.....	403
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA SOLIQ HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	408
Toshtemirov To'liqin Toirjonovich	
АКТИВИЗАЦИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИНВЕСТИЦИЙ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ В УСЛОВИЯХ ПРИАРАЛЬЯ (НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН).....	411
Жоллыбеков Хурмет Бахыт улы	



KORPORATIV MUNOSABATLAR ISHTIROKCHILARINING HUQUQLARINI HIMOYA ETISH VA TA'MINLASHNING HUQUQIY-IQTISODIY SHAKLLARI.....	416
Rustamova Dilbar Rustamovna	
IQTISODIY TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA STRATEGIK MENEJMENTNI RIVOJLANTIRISHNING XORIJIY TAJRIBALARI	423
Ismadiyarov Alisher Abduraxmon o'g'li	
METALLURGIK TEXNOGEN CHIQINDILARDAN KAMYOB METALLARNI AJRATIB OLISH TEXNOLOGIYASI	427
Qayumov Oybek Azamat o'g'li, Ro'ziyev Ulug'bek Mamarasulovich, Abdullayev Farruh Odiljon o'g'li	
TRANSCHEGARAVIY ELEKTRON SAVDONI TAKOMILLASHTIRISHDA XO'JALIK ALOQALARI LOGISTIKASI.....	434
Yakubov Maksadxan Sultaniyazovich, Jumaboev Behzod	
YASHIL IQTISODIYOTGA INVESTISIYALARNI JALB QILISH	443
Raimjanova Madina Asrarovna	
O'ZBEKISTONDA ZARGARLIK XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	448
Azizova Roxila Baxodir qizi	



O‘ZBEKISTONDA ZARGARLIK XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Azizova Roxila Baxodir qizi

Namangan davlat texnika universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonda zargarlik xizmatlari bozorini rivojlantirish omillari hamda marketing va servis mexanizmlarini takomillashtirish yo‘llari tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida zargarlik xizmatlari bozorining tarkibiy tuzilmasi, xizmatlar ko‘rsatish shakllari va hududiy rivojlanish xususiyatlari o‘rganildi. Maqolada zargarlik xizmatlarini rivojlantirishning mualliflik to‘rt bosqichli mexanizmi taklif etilib, uning ishlab chiqarish, savdo, logistika va raqamli platformalar orqali xizmatlar ko‘rsatish jarayonlarini yagona tizimda uyg‘unlashtirishdagi roli yoritib berildi.

Kaliit so‘zlar: zargarlik xizmatlari bozori, xizmatlar marketingi, servis infratuzilmasi, raqamli platformalar, marketing strategiyasi, zargarlik sanoati, xizmatlar sohasi.

Abstract. This article analyzes the factors influencing the development of the jewelry services market in Uzbekistan, as well as ways to improve marketing and service mechanisms. The study examines the structural composition of the jewelry services market, forms of service provision, and features of regional development. The article proposes an author’s four-stage mechanism for the development of jewelry services and highlights its role in integrating production, trade, logistics, and service delivery through digital platforms into a unified system.

Keywords: jewelry services market, services marketing, service infrastructure, digital platforms, marketing strategy, jewelry industry, service sector.

Аннотация. В данной статье проанализированы факторы развития рынка ювелирных услуг в Узбекистане, а также пути совершенствования маркетинговых и сервисных механизмов. В ходе исследования изучены структурное строение рынка ювелирных услуг, формы оказания услуг и особенности его регионального развития. В статью предложен авторский четырехэтапный механизм развития ювелирных услуг, раскрыта его роль в интеграции процессов производства, торговли, логистики и предоставления услуг через цифровые платформы в единую систему.

Ключевые слова: рынок ювелирных услуг, маркетинг услуг, сервисная инфраструктура, цифровые платформы, маркетинговая стратегия, ювелирная промышленность, сфера услуг.

KIRISH

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda xizmatlar sohasini rivojlantirish, ayniqsa yuqori qo‘shimcha qiymatga ega bo‘lgan xizmat turlarini kengaytirish mamlakat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilab berilmoqda. Zargarlik xizmatlari bozori ushbu jarayonda nafaqat aholining estetik va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi soha, balki bandlikni oshirish, kichik biznes va hunarmandchilikni rivojlantirish hamda eksport salohiyatini kengaytiruvchi muhim xizmatlar segmenti sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu bois zargarlik xizmatlari bozorini tizimli rivojlantirish, uning infratuzilmasini mustahkamlash va zamonaviy marketing yondashuvlarini joriy etish dolzarb masalaga aylanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 18-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida zargarlik tarmog‘ini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–5721-son Farmonida zargarlik sohasini rivojlantirish bilan bir qatorda, zargarlik xizmatlari ko‘rsatish tizimini takomillashtirish, xomashyoni qayta ishlashdan tortib tayyor mahsulot va xizmatlarni aholiga yetkazib berishgacha bo‘lgan zanjirni rivojlantirish vazifalari belgilangan [1]. Mazkur Farmonda zargarlik buyumlarini loyihalash, ta‘mirlash, dizayn xizmatlari, servis va savdo bilan bog‘liq xizmatlar bozorini kengaytirish orqali sohaga bo‘lgan talabni oshirish muhim vazifa sifatida qayd etilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son Farmonida xizmatlar sohasini, jumladan zargarlik va unga yondosh xizmatlarni rivojlantirish, kichik biznes



subyektlarini qo'llab-quvvatlash, aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish hamda zamonaviy servis va marketing texnologiyalarini joriy etish ustuvor vazifalar qatoriga kiritilgan [2]. Ushbu strategik hujjatda xizmatlar bozorida raqobat muhitini kuchaytirish va hududlarda servis infratuzilmasini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekistonda zargarlik xizmatlari bozorini rivojlantirish masalasi so'nggi yillarda iqtisodiy rivojlanish, xizmatlar sohasi transformatsiyasi va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlarda muhim yo'nalish sifatida qaralmoqda. Ilmiy adabiyotlarda xizmatlar bozorining rivojlanishi, avvalo, aholining daromad darajasi, iste'mol madaniyati, servis sifati va marketing yondashuvlari bilan chambarchas bog'liq.

Xalqaro tadqiqotlarda zargarlik xizmatlari bozori zargarlik sanoatining ajralmas qismi sifatida ko'rib chiqilib, dizayn, servis, ta'mirlash, individual buyurtmalar va savdo bilan bog'liq xizmatlar orqali qo'shimcha qiymat yaratish imkoniyati yuqori baholanadi. Kotler va Kellerning marketingga oid fundamental tadqiqotlarida xizmatlar marketingi doirasida iste'molchiga yo'naltirilganlik, xizmat sifati va brend ishonchini shakllantirish asosiy omillar sifatida ko'rsatiladi [3]. Ushbu yondashuvlar zargarlik xizmatlari bozoriga ham to'liq tatbiq etilishi mumkin.

Bir qator xorijiy tadqiqotlarda zargarlik xizmatlari bozorini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning ahamiyati alohida qayd etilgan. Deloitte va McKinsey hisobotlarida zargarlik sohasida onlayn buyurtmalar, individual dizayn platformalari, raqamli vitrina va ijtimoiy tarmoqlar orqali xizmatlarni targ'ib qilish xizmatlar bozorining kengayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatayotgani ta'kidlanadi [4]. Bu holat xizmatlar bozorida marketing strategiyalarini raqamli muhitga moslashtirish zarurligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va qarorlariga bag'ishlangan ilmiy-tahliliy ishlarda zargarlik sohasini rivojlantirish, xizmatlar bozorini kengaytirish, servis infratuzilmasini yaxshilash hamda marketing faoliyatini takomillashtirish ustuvor vazifalar sifatida belgilanganligi qayd etiladi. Ushbu normativ-huquqiy hujjatlar zargarlik xizmatlari bozorini rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METADOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot O'zbekistonda zargarlik xizmatlari bozorini rivojlantirish yo'llarini aniqlash hamda ushbu sohada marketing va servis mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, unda asosan nazariy-tahliliy va konseptual yondashuvlar qo'llanildi.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekistonda zargarlik xizmatlari bozori tanlandi. Tadqiqotning predmeti esa zargarlik xizmatlari bozorining rivojlanish mexanizmlari, servis infratuzilmasi, marketing jarayonlari hamda raqamli platformalar orqali xizmatlar ko'rsatish tizimini o'z ichiga oladi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning quyidagi usullaridan foydalanildi: tahlil va sintez, qiyosiy tahlil, mantiqiy umumlashtirish. Ushbu usullar orqali mavjud ilmiy qarashlar, normativ-huquqiy hujjatlar va bozor amaliyoti asosida xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'tkazilgan tahlillar O'zbekistonda zargarlik xizmatlari bozori so'nggi yillarda barqaror rivojlanish bosqichiga o'tayotganini ko'rsatadi. Aholi daromadlarining o'sishi, iste'mol madaniyatining shakllanishi hamda milliy hunarmandchilik va zargarlik an'analariga bo'lgan qiziqishning ortishi mazkur xizmatlar bozoriga bo'lgan talabni kuchaytirmoqda. Shu bilan birga, davlat tomonidan ko'rsatilayotgan institutsional qo'llab-quvvatlash choralari zargarlik xizmatlari ko'rsatish subyektlari faoliyatining faollashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda zargarlik xizmatlari bozori asosan quyidagi yo'nalishlarda shakllanmoqda: zargarlik buyumlarini ta'mirlash va restavratsiya qilish, individual buyurtmalar asosida dizayn xizmatlari, nikoh va marosimlarga mo'ljallangan zargarlik buyumlari tayyorlash, shuningdek, savdo bilan bog'liq servis xizmatlari. Ayniqsa, individual buyurtmalar va dizayn xizmatlariga bo'lgan talabning oshishi iste'molchilarning shaxsiylashtirilgan mahsulot va xizmatlarga bo'lgan ehtiyojining kuchayib borayotganini ko'rsatadi.


Bozor infratuzilmasi tahlili shuni ko'rsatadiki, zargarlik xizmatlari asosan yirik shaharlarda va sanoat markazlarida jamlangan bo'lib, hududlar kesimida rivojlanish darajasida sezilarli tafovutlar mavjud. Bu holat hududlarda servis infratuzilmasini rivojlantirish, kichik zargarlik ustaxonalari va hunarmandlarni qo'llab-quvvatlash orqali xizmatlar bozorini kengaytirish zarurligini ko'rsatadi. Prezident farmon va qarorlarida belgilangan vazifalar aynan ushbu hududiy nomutanosibliklarni bartaraf etishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Marketing nuqtayi nazaridan olib borilgan tahlillar zargarlik xizmatlari bozorida an'anaviy savdo va servis shakllari ustunligini ko'rsatadi. Biroq so'nggi yillarda raqamli marketing vositalari, xususan ijtimoiy tarmoqlar va

messenjerlar orqali buyurtma qabul qilish, onlayn kataloglar hamda vizual kontent asosidagi reklama xizmatlari jadal rivojlanmoqda. Bu holat xizmatlar bozorida marketing strategiyalarini raqamli muhitga moslashtirish zargarlik xizmatlari subyektlarining raqobatbardoshligini oshirishini tasdiqlaydi.

Narx siyosati tahlili shuni ko'rsatadiki, zargarlik xizmatlari bozorida narxlar asosan xizmatning murakkabligi, ishlatiladigan qimmatbaho materiallar va ustaning malaka darajasiga bog'liq holda shakllanadi. Premium segmentda individual dizayn va yuqori sifatli servis ustuvor bo'lsa, ommaviy segmentda xizmatlar narxining moslashuvchanligi iste'molchilarni jalb etuvchi asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda. Shu jihatdan, xizmatlar bozorida differensiyalashgan narx strategiyalarini qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

M.V. Komashyenko va T.V. Mazankovalar zargarlik do'konlari faoliyatini rivojlantirish strategiyalari bilan shug'ullangan bo'lib, zargarlik do'konlari faoliyati bo'yicha tanlangan strategiyalarning optimal variantlarini ishlab chiqdilar. Unga ko'ra, zargarlik do'konlari savdosiga qarab, shahar markazida yoki markazlardan uzoq-yaqinligiga bog'liq holda zargarlik do'konlari faoliyatiga baho berish taklif etildi (1-rasm) [6].



1-rasm. Zargarlik xizmatlarini to'rt bosqichli rivojlanish mexanizmi¹

Shu bilan birga, bizning taklifimizga ko'ra, zargarlik sanoati faoliyatini tahlil qilishga xizmat qiluvchi uch bosqichli emas, balki to'rt bosqichli mexanizmini taklif etmoqdamiz. SRM – yetkazib beruvchilar bilan

1 Muallif ishlanmasi



munosabatlar, CRM – mijozlar bilan munosabatlar, DRP – rejalashtirish va tarqatishdagi resurslar bo'linishi, ECR – xaridor savollariga samarali reaksiya berish. Bundan tashqari, zargarlik xizmatlari savdosini tashkil etishda, birinchi navbatda, ularni savdosi qamrab olingan hududlarga qarab ajratish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Unga ko'ra, mahalliy, mintaqaviy, milliy va xalqaro darajalarga ajratish taklif etiladi.

Ushbu rasmda zargarlik xizmatlarini rivojlantirishning to'rt bosqichli mexanizmi aks ettirilgan bo'lib, ushbu model zargarlik mahsulotlarini ishlab chiqarishdan tortib, ularni raqamli platformalar orqali iste'molchiga yetkazib berishgacha bo'lgan jarayonni kompleks tarzda ifodalaydi. Mazkur mexanizm zargarlik xizmatlari bozorini tizimli rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, ishlab chiqarish, savdo, logistika va raqamli xizmatlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ochib beradi.

Birinchi bosqichda zargarlik mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayoni amalga oshiriladi. Ushbu bosqichda ommaviy ishlab chiqarish va individual buyurtmalar asosida mahsulot tayyorlash yo'nalishlari ajratib ko'rsatilgan. Bu yondashuv zargarlik xizmatlari bozorida iste'molchilarning turli ehtiyojlarini qondirish, shuningdek, shaxsiylashtirilgan xizmatlar ulushini oshirish imkonini beradi. Aynan birinchi bosqich zargarlik xizmatlarining sifatini va bozor jozibadorligini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi.

Ikkinchi bosqich zargarlik mahsulotlarining ulgurji va chakana savdosi bilan bog'liq bo'lib, unda mahsulotlarning mahalliy, mintaqaviy, milliy va xalqaro bozorlarga chiqarilishi ko'zda tutilgan. Ushbu bosqich zargarlik xizmatlari bozorining geografik kengayishini ta'minlab, savdo infratuzilmasini rivojlantirish va marketing kanallarini diversifikatsiya qilish orqali xizmatlar hajmini oshirishga xizmat qiladi.

Uchinchi bosqich zargarlik mahsulotlarini yetkazish va saqlash jarayonlarini qamrab oladi. Bu bosqichda marketing-logistika jarayonlari, marketing kanallari ishtirokchilarini taqsimlash, shuningdek, zamonaviy boshqaruv tizimlari — SRM, CRM, DRP va ECR kabi mexanizmlarni joriy etish orqali xizmatlar samaradorligini oshirish nazarda tutiladi. Mazkur bosqich zargarlik xizmatlari sifatini ta'minlash va iste'molchilar bilan barqaror munosabatlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

To'rtinchi bosqich zargarlik mahsulotlari xizmatlarini raqamli platformalar orqali tashkil etishga qaratilgan bo'lib, unda ijtimoiy tarmoqlar, turli onlayn platformalar hamda ommaviy axborot vositalari orqali zargarlik xizmatlarini ko'rsatish mexanizmlari aks ettirilgan. Ushbu bosqich zargarlik xizmatlari bozorini raqamli iqtisodiyot sharoitlariga moslashtirish, xizmatlar qamrovini kengaytirish va marketing samaradorligini oshirish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari O'zbekistonda zargarlik xizmatlari bozori xizmatlar sohasi tarkibida yuqori qo'shimcha qiymatga ega, bandlikni oshirish va kichik biznesni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etuvchi segment ekanligini ko'rsatdi. Aholi daromadlarining o'sishi, milliy zargarlik va hunarmandchilik an'analarga bo'lgan qiziqishning kuchayishi hamda davlat tomonidan ko'rsatilayotgan institutsional qo'llab-quvvatlash choralari mazkur bozorni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratmoqda.

Maqolada taklif etilgan zargarlik xizmatlarini rivojlantirishning to'rt bosqichli mexanizmi mavjud uch bosqichli yondashuvlardan farqli ravishda, ishlab chiqarish, savdo, logistika va raqamli platformalar orqali xizmatlar ko'rsatish jarayonlarini yagona tizimda mujassamlashtiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, zargarlik xizmatlari bozorini rivojlantirishda marketing faoliyatini takomillashtirish, servis sifati va narx siyosatini differensiyalash, raqamli marketing vositalari va onlayn platformalardan faol foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar, onlayn kataloglar va individual buyurtmalarni qabul qilish tizimlarini joriy etish xizmatlar bozorining qamrovini kengaytirish va iste'molchilar bilan barqaror munosabatlarni shakllantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 18-maydagi "O'zbekiston Respublikasida zargarlik tarmog'ini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5721-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/-4344351>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni // <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
3. Kotler F., Keller K. Marketing Management. — 15th ed. — Harlow: Pearson Education Limited, 2016. — 832 p.
4. Deloitte. Global Powers of Luxury Goods 2023–2024. — London: Deloitte Insights, 2024. — 96 p.
5. McKinsey & Company. The State of Fashion and Luxury Industry. — New York: McKinsey Global Institute, 2023. — 112 p.
6. Комащенко М. В. Совершенствование стратегии управления ювелирной компанией. [Текст] / М. В. Комащенко, Т. В. Мазанкова, – Хабаровск: Вестник ХГАЭП №2 (76), 2015. – С. 52-63

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100